

TURIZM GEOGRAFIYASINING KELIB CHIQISH TARIXI

Boyqulova Shaxzoda

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali

Agroturizm yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Men bu maqolamda o’tgan asrlar davomida turizmning paydo bulishi rivojlanishi va hozirgi kunda tutgan o’rni va vazifalarini ochib bermoqchiman. Shu bilan birga turizmning vujudga kelish omillari va davrlari ijtimoiy turmush, madaniy hayot va mehnat jarayonlari bilan bevosita bog’liqligini ochib bermoqchiman

Kalit so'zlar: Turizm geografiyasi, agroturizm, turizm tarixi, sayohat turizmi, O’zbekistonda turizmning rivojlanishi.

Turizmning tarixi 19-asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angilyadan Fransiyaga uyushgan sayyoqlik taxminiy 1815 yillar atrofiga to’g’ri keladi. Turizmning asoschisi ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843- yilda 1- temir yo'l sayyoqligini tashkil etgan. Shundan so’ng asta sekinlik bilan turizm rivojlana boshlagan ko’plab turistik tashkilotlar va turli xil turistik korxonalar tuzilgan. 1866-yilda dastlabki sayyoqlik guruhlari AQSh ga jo’natildi Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatni boshlab deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi. Bizning buyuk tariximiz ya’ni buyuk bobokalonlarimiz davrida ham turizm ya’ni sayohat qilish keng tarqalgan masalan: Movarounnahr ilk sayyoohlarning safarları Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur fransuz qiroli Karl va ingliz qiroli Genrix bilan doimiy aloqada bo’lganligini ko’rishimiz mumkin biz bundan o’sha davrlarda ham turizmni ya’ni sayohatning juda keng rivojlanganini ko’rishimiz mumkin. Turizm umumiy ma’noda sayr-sayohatlar, sarguzashtlarni ifoda etadi. Turizm haqida ilmiy-ommabop risolalar, o’quv va uslubiy qo’llanmalar juda ko’p. Ularning mazmunida turli yoshdagি kishilar va aholining talablariga qarab sayr-sayohatlarni tashkil qilish yo’llari bayon etilgan. Turizmning vujudga kelish omillari va davrlari ijtimoiy turmush, madaniy hayot va mehnat jarayonlari bilan bevosita bog’liq. Eng qadimgi insonlar yashash uchun ov va mehnat qurollarini yaratishga harakat qilganlar. Shu tarzda tog’lar, daryo va ko’llarning sohillarida yashab yovvoyi hayvonlarni ov qilganlar, ularni qo’lga o’rgatib o’z mehnatlarida foydalanganlar. Ov manzillari dam olishga qulay bo’lgan joylarda ma’lum bir belgilarni (tur) qo’yishgan va zarur bo’lgan paytlarda ana shu joylarga kelib hordiq chiqarishgan. Hozirgi davrda turizm dunyoning juda ko’p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, turizm turizm tashkilotlari orqali turizm mashrutlari bo'yicha uyushtirilgan. Turizmning juda ko’p turlari va shakllari mavjud masalan: ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizm va boshqalarini misol qilishimiz mumkin. O’zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni “O’zbekturizm” milliy

kompaniyasi olib boradi bu kompaniya 1992-yil 27- iyulda tuzilgan shu bilan birga turizmni ruvojlantirish uchun bir qancha xalqaro turistik tashkilotlar tuzilgan masalan:1998 yilda O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Toshkentda "Xususiy sayyohlik tashkilotlarini uyushmasi" tashkil etildi.U 300 dan ziyod turistik korxonalar bilan aloqa olib boradi.

Foydalaniman adabiyotlar:

- 1.Usmonov M.R. Turizm geografiyasi:o'quv qo'llanma
- 2.Gulmetov.F.E. Allabergenov A.A. Turizm geografiyasi
- 3.E.Tog'aymurodov.Qishloq hududlarida eko-agroturizmning barqaror rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillar.
- 4.Mirzeyoyev Sh.M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yo'l garovi Toshkent nashriyoti 2017-yil
- 5.Dayt Boyev R.Safarov B.SH.Tursunov G.K. Turizm asoslari fan va texnologiyalar.